

ANDIJON VILOYATI SHAROTIDA DORIVOR TIRNOQGUL (*CALENDULA OFFICINALIS*) O'SIMLIGINI PLANTASIYALARINI TASHKIL ETISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17713284>

Xomidov Jasurbek Jamoldinovich

O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti Andijon filiali direktori,

b.f.f.d (PhD)

Andijon.lavanda@mail.ru

Annotatsiya

Calendula officinalis L. (dorivor tirnoqgul) o'simligi ko'p asrlar davomida nafaqat dekorativ, balki tibbiy maqsadlarda ham ishlatilgan. U xalq orasida "aylanma gul", "ne'matkal" yoki "oltin gullar" nomi bilan ham tanilgan. Tik o'suvchi, balandligi odatda 30–60 sm gacha etadi. Poyasi tarmoqlangan va o'simtaning butun yuzasini mayda tukchalar qoplaydi. Navbatma-navbat joylashgan, cho'ziq-yumaloq shaklga ega, poya bo'ylab zich joylashgan. Barglar silliq yoki engil tukli bo'lishi mumkin. Biz bu maqolada o'simlikning foydali xususiyatlari haqida ma'lumotlar beramiz.

Kalit so'zlar

Kalendula, nastok, depressiya, shifobaxsh, damlama, jaroxat, sistit, gul, vosita, urug', kuchat, qalamcha, gul

Аннотация

Растение Салендула оффисиналис Л. (ноготки) на протяжении столетий использовалось не только в декоративных, но и в лечебных целях. Его также часто называют «вращающимся светком», «неьматкал» или «золотым светком». Растет вертикально, обычно достигая высоты 30–60 см. Стебель разветвленный, вся поверхность растения покрыта мелкими волосками. Они расположены поочередно, имеют продолговато-округлую форму и густо расположены вдоль стебля. Листья могут быть гладкими или слегка опушенными. В этой статье мы расскажем о полезных свойствах растения.

Ключевые слова

Календула, настой, депрессия, иссечение, настойка, травма, систит, светок, средство. семена, волосы, розовый, светок

Abstract

Calendula officinalis L. (medicinal marigold) has been used for centuries not only for decorative but also for medicinal purposes. It is also known among the people as “round flower”, “ne’matkal” or “golden flowers”. It is an erect plant, usually reaching a height of 30–60 cm. The stem is branched and the entire surface of the plant is covered with small hairs. It is alternately arranged, has an oblong-round shape, densely located along the stem. The leaves can be smooth or slightly pubescent. In this article, we will provide information about the beneficial properties of the plant.

Keywords

Calendula, nastok, depression, healing, tincture, injury, cystitis, flower, remedy, seeds, hair, pink, flower

Mahalliy nomlari: *Kalendula*, ayiqquloq, oltin gullar.

Oilasi: Qorag’atdoshlar (Asteraceae).

Ko’rinishi: Yorqin sariq yoki to’q to’q sariq rangli gullarga ega, ko’pincha bog’larda bezak sifatida ham etishtiriladi.

Dorivor tirnoqgul (*Calendula officinalis*) – ikki pallali o’simliklar sinfiga, qoplangan urug’lilar bo’limiga, astroviylar (Asteraceae) oilasiga mansub bir yillik yoki ikki yillik o’simlik hisoblanadi. U xalq orasida “aylanma gul”, “ne’matkal” yoki “oltin gullar” nomi bilan ham tanilgan. Tik o’suvchi, balandligi odatda 30–60 sm gacha etadi. Poyasi tarmoqlangan va o’simtaning butun yuzasini mayda tukchalar qoplaydi. Navbatma-navbat joylashgan, cho’ziq-yumaloq shaklga ega, poya bo’ylab zich joylashgan. Barglar silliq yoki engil tukli bo’lishi mumkin. *Kalendula* guli murakkab soyabon gulshaklida, markaziy naychasimon gullar va chetki tilsimon (tashqi) gullardan iborat. Gul rangi odatda to’q sariq yoki och sariq bo’ladi. Gullash davri: may oyidan boshlab birinchi sovuqqacha davom etadi. Quruq, egri shaklli urug’ (axen). Mevalari hajmi va shakli bo’yicha farqlanadi, bu o’z navbatida polimorfizm holatini bildiradi.

Dorivor tirnoqgul yorug’savar o’simlik hisoblanadi. Tuproqqa talabchan emas, biroq unumdor, yaxshi qurigan tuproqlarda yaxshi o’sadi. Sovuqqa nisbatan chidamli, -3°C gacha bo’lgan haroratga bardosh bera oladi. Urug’lar bilan ko’payadi, tabiiy sharoitda o’z-o’zini ekish (samosev) orqali ham ko’payadi. *Kalendula* asosan Janubiy Yevropada tabiiy holda uchraydi. Hozirda Yevropa, Osiyo, Shimoliy Afrika va Amerikaning turli qismlarida madaniy holatda etishtiriladi.

Ilmiy tajribalar. Andijon viloyati Izboskan va Jalaquduq tumanlari sharoitida mart oyining ikkinchi dekadasida ochik dala maydonlariga Dorivor tirnoqgul (*Calendula officinalis*) o’simlik urug’lari ekildi va dastlabki sug’orish tadbiroari

amalgam oshirildi. Andijon viloyati sharoitida 8-12 kun davomida o'simlik unib chiqib boshladi. (1-rasm)



**1-
rasm.
Dorivor
tirnoqgul**

(*Calendula officinalis*) o'simlik unib chikish jarayoni

Dorivor tirnoqgul (*Calendula officinalis*) o'simligining vegetatsiya davri davomida unib chiqish va chinbarg chiqarish bosqichi mart oyining uchinchi dekadasiga sodir bo'ldi. Dorivor tirnoqgul (*Calendula officinalis*) o'simligi yon poyalar xosil bo'lishi aprel oyida va generativ davrga kirish jarayonlari aprel oyining uchinchi dekadasida kuzatildi.(2-rasm)



**2-
rasm.**

Dorivor tirnoqgul (*Calendula officinalis*) o'simlik generativ davri

Dorivor tirnoqgul (*Calendula officinalis*) o'simligi tajriba maydonlarida kuzatishlar davomida vegetatsiya yilida 10 dan ortik yon poyalar xosil qildi. Vegetatsiya yili yakuniga qadar 25-30 yon poyalar xosil qilib xar bir poya yuqori qismida gulg'uncha ochib urug' xosil bo'lish jarayonlari kuzatilmoqda. Tadqiqotlar davomida ushbu o'simlik xosildorlik ko'rsat qichlari bo'lisha xam ilmiy tadqiqotlarimizni davom ettiramiz.

1- jadval

Dorivor tirnoqgul (*Calendula officinalis*) o'simligining vegetatsiya davrida o'sish va rivojlanish davri ko'rsatkichlari

Qaytariqlar	100 dona urug'dan				Bir tupdagi		Barglar soni,		Yon shohlari		
	unib chiqqan		nobud bo'lgan		poyalar		dona				
	soni, dona	%	soni, dona	%	soni, dona	balandl igi, sm	mavju d	to'kil- gan (bo'g'i m)			
Quzatilgan sana: 22.03.2025											
Izboskan tuman	92	91,0	8	9,7	1	2,2	7,0				
Jalaquduq tuman	87	87,0	13	13,1	1	1,8	3,0				
O'r.	89,3	89,3	10,6	12,4	1	2,1	6,3				
Quzatilgan sana: 02.05.2025											
Izboskan tuman	92	91,0	8	9,7	1	14,0	28,0	2	7	8,0	28
Jalaquduq tuman	87	87,0	13	13,1	1	12,0	24,0	1	5	5,5	24
O'r.	89,3	89,3	10,6	12,4	1	13,3	26,0	1	6,3	6,5	26,0

XULOSA

Ilmiy tadqiqotlar natijalarga ko'ra, dorivor tirnoqgul (*Calendula officinalis*) o'simligi Andijon viloyati tuproq va iqlim sharoitida madaniy plantatsiyalarini tashkil etish mumkinligi isbodlandi.

Dorivor tirnoqgul (*Calendula officinalis*) o'simligiga bo'lgan extiyoj imporni qisqartirishga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shifobaxsh ne'matlar M.Nabiyev, V.Shalnev, A. Ibrohimov
Toshkent – „Mehnat“ – 1989
2. Dospexov B. A. Metodika polevogo opyta / B. A. Dospexov. – M.: Kolos, 1985. – 335 s.
3. Inoyatova M.X. Dorivor tirnoqgul (*Calendula officinalis*) ning qimmatli xususiyatlari va mineral o'g'itlarning ta'siri natijalari / Qishloq xo'jaligi ilmini rivojlantirishda ayollarning o'rni" xalqaro ilmiy-amaliy simpozium materiallari to'plami. // - Toshkent. - 2024. - 196-198 b.
4. Nishonova A.Ya, Inoyatova M.X. [https: Ways to enrich, protect, cultivate and rationally use the gene pool of medicinal plants / Journal of agriculture &](#)

horticulture / International scientific journal // ISSN: 2770-9132. UIF= 8.1. – SJIF= 5.69. – 2023.- 51-54 pages

5. Khomidov Jasurbek Jamoldinovich. Methods of Fertility and Increasing of the Seeds of Medicinal Lavanda (*Lavandula Officinalis* L.) in the Climate and Soil of Fargona Volley. Annals of R.S.C.B., ISSN:1583-6258, Vol. 25, Issue 2, 2021, Pages. 3832 - 3837 Received 20 January 2021; Accepted 08 February 2021.